



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
<b>2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva</b> XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
<b>3. Наргиза Абдурахманова</b> ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
<b>4. Шерзод Таштурсунович Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
<b>5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov</b> TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
<b>6. Наргиза Кенжаева</b> ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
<b>7. Lola Yusupovna Samatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
<b>8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov</b> O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
<b>9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi</b> AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
<b>10. Feruza Erkinovna Atajanova</b> OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
<b>11. Muborak Madrimovna Matyakubova</b> XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
<b>12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев</b> КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94



**Malika Xaydarova Shaxriddin qizi,**  
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti  
xaydarovamalika12@gmail.com

## AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI

**For citation:** Malika Sh.Haydarova. AMIR TEMUR'S MILITARY PROWESS IN BATTLES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082816>

### ANNOTATSIYA

Maqola Amir Temur va temuriylar davridagi harbiy yurishlardagi muhim manba bo'lgan qurol aslahalarni va ularning o'ziga xos xususiyatlarini turli manbalar asosida tahlil qilishga qaratilgan. Amir Temur davlatchiligida qurol aslahalarning o'rni, ularning jang maydonidagi ahamiyati, umumiy ta'minot masalalari muhokama etiladi. Dunyoda birinchi marotaba yengilmas muntazam armiyaga asos solgan Sohibqiron Amir Temurning harbiy daholari yaqqol ko'zga tashlanib kelmoqda. Amir Temurning harbiy ilmi borasidagi betakror zakovati jahon sarkardalari uchun ulkan saboq bo'lib keldi va hozirgi kunda ham uzliksiz ravishda o'rganilib borilmoqda

**Kalit so'zlar :** temuriylar davlatchiligi, qurol yaroq, yoy , dubulg'a , qilich , nayza, kamon.

---

**Хайдарова Малика Шахриддиновна,**  
Гулистанский государственный университет  
Базовый докторант

## ВОЕННОЕ МАСТЕРСТВО АМИРА ТЕМУРА В СРАЖЕНИЯХ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вооружение и доспехи, являвшиеся важным источником военной мощи в эпоху Амира Тимура и Тимуридов, а также их специфические характеристики на основе различных источников. Рассматривается роль вооружения и доспехов в государственности Амира Тимура, их значение на поле боя и общие вопросы снабжения. Военный гений Амира Темура, основавшего первую в мире непобедимую регулярную армию, очевиден. Уникальные знания Амира Темура в области военной науки стали ценным уроком для мировых военачальников и продолжают изучаться по сей день.

**Ключевые слова:** государственность Тимуридов, оружие, лук, шлем, меч, копье, лук.

---

**Malika Sh. Haydarova,**  
Gulistan State University  
Base doctorate student

## AMIR TEMUR'S MILITARY PROWESS IN BATTLES

**ABSTRACT**

The article aims to analyze the weapons and armor, which were an important source of military campaigns during the era of Amir Temur and the Timurids, and their specific characteristics based on various sources. The role of weapons and armor in the statehood of Amir Temur, their importance on the battlefield, and general supply issues are discussed. The military genius of Amir Temur, who founded the first invincible regular army in the world, is clearly visible. Amir Temur's unique intelligence in military science has been a great lesson for world commanders and is still being studied continuously today.

**Index Terms:** Timurid statehood, weapons, bow, helmet, sword, spear, bow.

**1. Dolzarbligi:**

O'zbek milliy davlatchiligi taraqqiyoti va harbiy ish faoliyatida yorqin iz qoldirgan buyuk sarkardalarimizdan biri Amir Temurdir. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Quyi Vo'lga, Balxash ko'li va Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Amir Temur davlatni aql zakovat va intizomli va yaxshi qurollangan qo'shinga tayangan holda boshqaruv olib brogan. Uning "...davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat bilan qolgan bir qismini esa qilich bilan amalga oshirdim" degan so'zlari buning yorqin namunasidir.

**2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**


Mazkur maqola Amir Temur harbiy yurishlaridan oldin lashkarlarining jangovar shayligi, anjom-aslahalar bilan ta'minlanganligi va ularning sozligi qay darajada e'tibor qaratilganligini kuzatish orqali qo'shinni jang oldi mas'uliyatini oshirishi borasidagi tajribasini o'rganishga bag'ishlangan.[1]

Amir Temur qo'shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi. Lekin piyodalar ham uzoq cho'l safarlarida otlar bilan ta'minlanar, otliq askarlarning katta qismi esa bizning dragunlarimiz kabi, kerak bo'lganda piyoda tartibda jang qilishga ham o'rgatilgan edi. Ular faqat kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo'lgandagina otdan tushib, piyoda jangchiga aylanardilar. Lekin ular otda piyoda holda harakat qilishdan ko'ra yaxshiroq harakat qilganlari shubhasiz, chunki ko'chmanchi xalqlar yoshlik chog'laridanoq otda yurishni yaxshilab o'zlashtirib olishadi.[2]

**3. Tadqiqot natijalari:**

Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko'rardi, shu sababli ham uing saltanatida birorta inson behuda ranjilmagan, zulm ko'rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san'atning gullab yashnashiga erishish edi. Uning oliyjanoblighi bisyor va bisyor hollarda namoyon bo'lmishkim, alar haqinda so'ylab o'tirishning o'rni emasdir.[3]

Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan lashkarlardan iborat bo'lgan. Lashkar <<tuman>>- o'n minglik, <<hazora>>-minglik, <<hushun>>-yuzlik va <<ayl>>-o'nlik birikmalariga bo'lingan. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo'shinda yuz ming nafardan ortiq bo'lgan. Temur o'n minglik lashkarni boshqarish uchun <<tuman og'asi>>, minglik bo'linmalar uchun <<mirihazora>>, yuzliklar uchun <<hushunboshi>> va o'nliklar uchun esa <<aylboshi>> kabi



harbiy mansablarni joriy etadi.[4]

Amir Temur taxtga o'tirish boisi o'laroq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar o'z ifodasini harbiy ishida va harbiy san'atda ham namoyon etadi. Uning harbiy istedodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ladi. [5]Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi sifatida Amir Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoraba chog'iga qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'oyalarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muvassar bo'ladi.[6]

Amir Temur beixtiyor ravishda jahon harbiy san'ati tarixini yangi pog'onalariga ko'tarib, xususan, Yevropa xalqlariga katta xizmat ko'rsatdi. A.Yu.Yakubovskiy Amir Temurning harbiy yutuqlari tufayli ko'pgina mamlakatlar zulm iskanjasidan ozod bo'lganligini ta'kidlab: "To'xtamish qo'shinining Terek daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda Saroy Berkaning harob qilinishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba berdi. Shundan keyin u o'zini o'nglay olmadi. Qadimgi Rusga



1-рasm. Amir Temur қилчи.

qanchadan-qancha jabr-zulm o'tkazgan davlat zaiflashib qoldi. 1395 yildan keyin esa Oltin O'rda tushkunlikka tusha boshladi. Mamay qo'shinlarining 1380 yilda Kulikova dashtida tor-mor etilishi Oltin O'rdaga berilgan birinchi zarba edi. 1395 yilda Terek daryosi bo'yidagi mag'lubiyat va Saroyning tor-mor qilinishi esa Oltin O'rdaga berilgan oxirgi zarba bo'ldi. Garchi Temur O'rta Osiyo manfaatlarini ko'zlagan hamda Moskva knyazlari bilan aloqa bog'lamagan holda Oltin O'rdaga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurash natijasida u O'rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki xolis ravishda

Rusiya uchun ham juda katta xizmat qildi. Anqara yonidagi bu g'alaba va Boyazidning asir tushirilishi Konstantinopolning usmonli-turklar tomonidan bosib olinishini qariyb ellik yil orqaga surib yubordi", -deb ta'kidlaydi.[7]

Sohibqiron harbiy kuchga tayanib mamlakatni ichki va tashqi xavflardan muhofaza qilish, mintaqalardagi tartibsizliklarni oldini olish, adolat, tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, mazlumlarni zolimlardan himoya etish, umuminsoniy g'oyalarni keng yoyish, qonun ustuvorligiga erishish, islomiy qadriyatlarni tiklash, tinchlikni ta'minlash, integratsion jarayonlarni tezlashtirish, geosiyosiy maydondagi vaziyatni nazorat qilish kabi ishlarni amalga oshirdi.[8] "Tuzuklar"da: "Biron mamlakatda jabr-zulm va fisku fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatish, fisq-fasodni zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim"[9], -deyilishi bejizga emas.

Sh. Uljayeving yozishicha, "Sohibqiron mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalarga muhim dastur vazifasini o'tadi. U lashkariy qismlarni Chingizxon davridagidan ham mukammalroq qaytadan tashkil etib, kuragi yerga tegmagan harbiy sarkarda, bugungi kungacha o'tgan qo'mondonlarning eng buyuklaridan biri sifatida dovrug' qozondi. Aynan mana shu harbiy san'ati orqali mamlakatda kuchli mudofaa tizimi yaratildi. Amir Temur harbiy ilmu salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan birga dunyo geosiyosiy maydonida yetakchi mavqeini egalladi".[10]

Milodiy 1365 yilda Sirdaryo bo'yida Chinoz yonida mog'ullar bilan bo'lgan mashhur "Loy jangi"da Amir Xusayn boshliq Turon cherigi(Amir Temur lashkarboshi edi) mag'lub bo'ldi. Bu 29 yoshli Amir Temurning umrida birinchi va so'nggi mag'lubiyati edi.1366 yilda Qarshida Temurbek bor-yog'i 243 kishi bilan 12 ming kishilik dushmanga qarshi jang qildi va tangrining inoyati-yu, sarkardalik salohiyati bilan muzaffariyat tug'ini baland ko'tardi.1368 yilda Badaxshonda ko'li baland kelgan dushman Sohibqiron askarlarining ko'pini qirib tashladi va 130 kishini asir qildi. Yonida bor-yog'i 13 navkar bilan qolgan Amir Temur mardlarcha Dobon tog'i tepasiga chiqib

yo'lni to'sdi va ko'p jangu , chorasiz qonli urinishlar evaziga o'z askarlarini dushmandan kusharib oldi. Keyinchalik Amir Temur usha jangnineslab: “ Ko'p janglar qildim va ko'p voqealarni boshdan kechirdim-u ammo bu jangdan qattig'ini ko'rmadim...” degan edi. Sohibqiron dunyoning 27 mamlakatini musaxxar qildi. Taxminan mingdan ortiq, jang o'tkazdi, ularda zafar hamisha Sohibqiron tomonida bo'ldi.[11]



Amir Temur Chingizxon harbiy san'atidan birmuncha foydalangan. Bu holni qo'shinining joylashtirishida ham ko'rish mumkin. Uning Lashkari o'n qismdan iborat edi. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning xabar berishicha, u mo'g'ulcha an'analarning ko'r-ko'rona taqlidchisi emas edi. Nizomiddin Shomiy va Ali Yazdiy uning harbiy san'atda zukko bo'lganligini qayd etadilar . Temur harbiy tarixini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, u qo'shinni tashkil etishda qator yangiliklar olib kirgan . Uning davrida eng mas'ul topshiriqlarni tovachilar (jarchilar yoki choparlar) bajargan. Temur har bir yurishi oldidan yangitdan qo'shin to'plash uchun viloyat va urug'larga tovachilarni yuborardi. Ular viloyat amirlariga Temur farmoyishlariga oqizmay -tomizmay yetkazardi. Bu tartib Temurga qadar mavjud emas edi.[12]

Uzoqni ko'zlab, puxta o'ylab ish tutish Amir Temur harbiy strategiyasining asosini tashkil etgan. Vaziyatni o'rganib, tahlil qilish va to'g'ri qarorga kelish uning ko'pgina harbiy harakatlari zafar bilan yakun topishiga sabab bo'lgan. Jumladan, “Saltanatimni mustahkamlash uchun qilgan o'ninchi kengashim”da shunday deydi: “Qo'shinimning jangga hozirligi haqidagi xabar Badaxshon shohlariga yetgach, urushga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. O'zimcha mushohada qilib, dushman lashkar to'plam ulgurmasdanburun epchilik, uddaburonlik bilan zarba berib, ularni to'zitib yubormoqchi bo'ldim. (Shuning uchun) yurish qilib, Talliqonga (Talliqon – hozirgi Afg'onistonning shimolidagi qadimgi shahar. O'tmishda Toxariston davlatining poytaxti. O'rta asrlarda yana ikkita Talliqon mavjud bo'lgan: ulardan biri – Hirotdan g'arbroqda, ikkinchisi – Kaspiydan janubi-g'arbda joylashgan edi) yetib keldim. Talliqonga kelganimdan Badaxshon shohlari xabardor bo'lgach, tinch yo'l tutib, menga mulozim bo'lishni ixtiyor qildilar. Qo'llagan tadbirimdan ko'nglim to'ldi va xato qilmaganimni angladim. Mening saltanatim butun Badaxshon viloyatiga yoyildi. Badaxshon sipohlarining aksariyati tamom xizmatimda bo'lishni ixtiyor etdilar”.

Amir Temur “Tuzuklar”ning “Jeta va Ilyos Xoja lashkariga shikast yetkazish haqida qilgan o'n uchinchi kengashim”ida har bir jangdan oldin puxta o'ylab, tafakkur qilib va o'z-o'zi bilan maslahatlashib, qat'iy va to'g'ri qaror chiqarganligi haqida gapiradi: “Shu payt qaroram, Ilyos Xo'ja o'z amirlari bilan o'tlanib, favj-favj bo'lib ketayotibdi. Amirlarim va sipohiyarim ularning ketidan quvish maqsadida mendan buyruq berishimni iltimos qildilar. Men o'ylab turib, to'g'animning maqsadi ma'lum bo'lguncha ta'qib etishni bir oz kechiktirishni maslahat ko'rdim (o'zim bilan maslahatlashib, ma'qul ko'rdim – J.X.). (Taxminan) to'rt farsang yerga borib to'xtaganlaridan

keyin, ularning maqsadlarini tushundim. Niyatlari – bizni tog‘dan tushirib, yalang yerda jang qilish ekan”. Jeta va Ilyos Xoja qo‘shini bilan bo‘lgan jang Amir Temurning nihoyatda taktikaviy harakat qilishini, eng og‘ir va murakkab vaziyatlarda nihoyatda puxta o‘ylab ko‘rib, to‘g‘ri va qat‘iy qaror chiqara olish qobiliyatiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning ana shunday qobiliyatga egabo‘lganligi tufayli u ko‘pgina tengsiz va ayvsiz janglarda (Amir Temur sipohiyarlari son jihatidan dushman qo‘shiniga nisbatan kamchilikni tashkil etgan hollarda), jumladan, Jeta va Ilyosxoja qo‘shinlariga qarshi olib borgan jangida ham g‘alaba qozongan.[13]

Amir Temur qo‘shinlarni tashkil etishda muhandislik harbiy qismlariga ham katta ahamiyat bergan. Xuddi shu hislatni temuriylarning harbiy yurishlarida ko‘plab uchratish mumkin. Bobur Mirzo Hindistonni fath etish chog‘ida juda ko‘plab daryolarni ko‘chma ko‘priklar yordamida kechib o‘tganligi va dushman ustiga kutilmaganda bostirib borish imkoniyatiga ega bo‘lganligi ma‘lum . Amir Temurning harbiy taktikasini yevropaliklar yaxshi o‘rganliklari va o‘zlari ham qo‘llaganliklarini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur Boyazidga qarshi jangda gregorian olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o‘rnatib jangga kirganligi hech kimga sir emas. Bu usulni keyinchalik ingliz qo‘shinlari 1858 yilgi Dehli shahrida bo‘lib o‘tgan sipohiyar qo‘shinlarining qo‘zg‘olonini bostirish chog‘ida qo‘llaydilar. Ular Dehli shahrini shtrum qilish chog‘ida to‘plarni tuyalar va fillar ustiga o‘rnatib jangga kirganlar hamda g‘olib bo‘lganlar.[14]

#### 4 Xulosalar:

Amir Temur davlatchiligi o‘z davri uchun mukammal harbiy -siyosiy tizimga asoslangan markazlashgan imperiya namunasi bo‘ldi . Uning davlat boshqaruvi harbiy intizom va shaxsiy sadoqat tamoyillariga tayanib, markaziy hokimiyatning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Temur harbiy islohot orqali qo‘shin tarkibini takomillashtirdi , razvedka va strategik rejalashtirishga alohida e‘tibor berdi . Uning yurishlari nafaqat hududiy kengayish , balki siyosiy barqarorlikni ta‘minlash , savdo yo‘llarini nazorat qilish va markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan edi.

#### Iqtiboslar/ Сноски / References:

- 
1. Po‘latov Sh. Amir Temurning harbiy yurishlarga tayyorgarligi // “Экономика и социум”. – 2023. – №2(105).
  2. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. – T.: Fan, 1994. – B. 130–135.
  3. Sharaf ad-Din Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Muqaddima.
  4. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. – B. 33–35.
  5. Muminov M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – T.: Fan, 1968.
  6. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – T.: Yozuvchi, 1996. – B. 8.
  7. Ganiyeva S. Alisher Navoiy (жизнь и деятельность). – T.: Fan, 1962. – B. 84.
  8. Axmedova M. Amir Temur davlatida xavfsizlikni ta‘minlashning huquqiy asoslari: diss. – 128 b.
  9. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 115.
  10. O‘ljayeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat. Diplomatiya. – T.: Akademya, 2017. – B. 133–135.
  11. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
  12. Abduraximov M. Temur va To‘xtamish / Mas‘ul muharrir: K. Normatov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 80 b.
  13. Xolmo‘minov J. Sohibqiron Amir Temur fathlarida harbiy taktika va islomiy qadriyatlar mutanosibli // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 6.
  14. Yangi tarix. – T.: O‘qituvchi, 1991. – B. 232.

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000